

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Sitora Ayonovna AZAMOVA

o‘qituvchi

Shahrisabz Davlat pedagogika instituti

Shahrisabz, O‘zbekiston

e-mail: azamovasisitora04@gmail.com

Annotatsiya

Bugungi kunda ekologik inqirozning oldini olishda aholining ayniqsa, o‘ziga kelayotgan yosh avlodning ekologik-huquqiy ta’lim-tarbiyasi, madaniyati va ma’naviyatini hal qiluvchi omillardan biri sanaladi. Maqolada ekologik globallashtirish sharoitida ekologik madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: globallashtirish, ekologiya, ekologik madaniyat, ekologik vaziyat, ekologik xavfsizlik, integratsiya, ekologik ong, konsepsiya.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Ситора Аёновна АЗАМОВА

преподаватель

Самаркандский Государственный педагогический институт

Шахрисабз, Узбекистан

Аннотация

Сегодня экологическое и правовое образование, воспитание, культура и духовность населения, особенно подрастающего молодого поколения, являются одним из решающих факторов в предотвращении экологического кризиса. В статье анализируются возможности развития экологической культуры в условиях экологической глобализации.

Ключевые слова: глобализация, экология, экологическая культура, экологическая ситуация, экологическая безопасность, интеграция, экологическое сознание, концепция.

Insoniyatning tabiat bilan o‘zaro aloqadorlik munosabatlari uning yashash uchun kurash jarayoni davridan boshlab davom etib kelmoqda. Inson hayoti faoliyatining yer kurrasida davom etishi tabiatni asta-sekinlik bilan o‘zgartirib, unga yangicha qiyofasini shakllantirdi. Jarayon ilk boshlanish davrlarda ijobiy munosabatlar asosida kechdi. Tabiat insonga o‘z tuhfasini, inson ham tabiatga munosib tuhfasini in’om eta boshladi. Munosabatlar o‘zaro ikki tomonlama hamkorlikning munosib ifodasi sifatida namoyon bo‘la boshladi. Yillar, asrlar, ming yillar o‘tishi insonning tabiatdan asta-sekin talab etadigan o‘ziga xos

madaniyati shakllana boshladi. Bu madaniyat inson uchun mislsiz imkoniyatlarni, tabiat uchun ko‘plab yo‘qotishlarni olib keldi. Tabiat bir tomondan sayqallashib, chiroy ochib borgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan mislsiz salbiy inqiroz sari odimlay boshladi. XIX asrning oxirlarida ekologiya atamasi iste’molga kirib keldi va yangicha ekologik qarashlar shakllandi. XX asrning birinchi yarmida ekologik munosabatlar o‘z relesidan chiqib, global tus oldi va inson-jamiyat-tabiat formulasi meyoriy iste’moli keskin oshib ketdi. Natijada, ekologik globallashuv dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Shu jihatdan ekologik madaniyatning rivojlanish imkoniyatlarini ilmiy-nazariy asoslash ijtimoiy fanlarning dolzarb vazifasiga aylandi.

Ekologik muammolarni bartaraf etishning asosiy yo‘llaridan biri – insonning ekologik madaniyatini shakllantirishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, muvozanatga erishishga urinish ilmiy adabiyotlarda o‘z isbotini topgan. Albatta, bunday muammolarni faqat ma’muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi. Bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin [2;318]. Shunga ko‘ra, ekologik madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ekologik madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar asosida amalga oshadi. Mazkur obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar mazmunining talqini, uning ta’siri xarakteri va ko‘lami tahlili, birinchidan, ekologik madaniyatning dinamik xususiyatlari va undagi qonuniyatlarning o‘ziga xos jihatlarini ilg‘ab olish imkonini beradi. Ikkinchidan esa, mazkur yondashuv konkret jamiyatdagi ekologik madaniyat modelining shakllanganligi darajasini aniqlashda nazariy asos vazifasini o‘taydi. Ekologik madaniyatni rivojlantirishning obyektiv asoslari: tabiiy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy shart-sharoitlar asosida kechadi. Ekologik madaniyatning obyektiv shart-sharoitlari jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari asosida rivojlanishda davom etadi. Jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, inson hayotini yashilasa, ikkinchi tomondan, inson uchun xavfli vaziyatlarni ham yuzaga kelishiga zamin hozirlab boradi. Jamiyat taraqqiyotga erishgani sayin, ekologik muammolar shunga xos tarzda shakllanib,

global tus oldi. Jamiyatning o'zgarishi tabiatni kambag'allashuviga, tabiatning kamabag'allashuvi insonning farovonlashuviga sabab bo'ldi. Natijada, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar nomutanosib shakllandi. Bu esa, ekologik madaniyatni obyektiv rivojlanishi uchun sharoit yaratdi. Kelajakda ham jamiyat taraqqiyoti ekologik madaniyatni obyektiv rivojlanish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Ekologik madaniyat inson faoliyati davomida doimiy harakatda, ma'lum xususiyatlarga ko'ra rivojlanib boradigan jarayon bo'lib, ijtimoiy madaniyatning tarkibiy qismidir. Inson ekologik madaniyatini shakllantirish global jamiyatda muhim ustuvor vazifaga aylanib bormoqda. Jahonda kechayotgan geosiyosiy jarayonlar ekologik munosabatlarga ham alohida ta'sir ko'rsatdi. Ba'zi mintaqalarda ekologik inqiroz tobora kuchayib, inson hayoti va tabiatning rivojlanish mexanizmlariga jiddiy zarar yetkazishga ulgurdi. Ekologik inqirozning jadal quloq yoyib borishi bir tomondan, obyektivlik xususiyatini namoyon qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, insonning subyektiv noreal munosabatlarining natijasida sodir bo'layotganini ko'rsatmoqda. Bu esa, umuminsoniyat ekologik madaniyatini shakllantirishni kun tartibiga qo'yimoqda. Inson uchun ekologik madaniyatni shakllanish obyektiv munosabatlar tarkibini tashkil etsa-da, xalqaro geosiyosiy jarayonlarning olamshumul tus olishi subyektiv munosabatlar tarkibida mustahkamlanib borishini ta'minlamoqda. Ekologik inqirozning kengayishi insonning hayotini saqlash uchun, tabiatni asrab-avaylash zarurligini ko'rsatdi. Endilikda inson tabiatni tabiat uchun emas, o'zi uchun asrashi kerakligini aniq his qildi. Tabiatni ayovsiz ishg'ol etish, inson hayotidagi katta muhim xatoligi yaqqol namoyon bo'ldi. Ekologiyaga bo'lgan munosabat endilikda bitta davlat, bitta mintaqalar yoki ma'lum hududlarni tartibga solish bilan belgilanmayapti. U xalqaro tus olib, ekologik munosabatlarni integratsiyalashuviga yo'l ochmoqda.

Qadimgi va o'rta asrlar sharoitida ekologik inqirozni keltirib chiqargan hududlarni alohida davlat chegaralari yoki mintaqalar kesimida qamrab olib, chora-tadbirlarni amalga oshirish imkoniyati biroz soddaroq shaklda bo'lgan.

Masalan, yonib ketgan o'rmonlar o'rniga yangisini barpo etish, epidemiya tarqalgan hududlarga boshqalarni yaqinlashtirmaslik, sel kelishi va suv toshqinidan zarar yetgan joylarni tozalash, yaroqsiz bo'lib qolgan yerlarni oziqlantirish, botqoq yerlarni o'zlashtirish kabi muammolarni hal qilish osonroq jarayonni tashkil etgan. [3;13]. Shu sababli, ekologik muammolar global darajaga ko'tarilmagan. Suv, tuproq, atmosferani avaylash o'sha davrlarda ham dolzarb ahamiyat kasb etgan. Aholining ekologik madaniyatini shakllantirib borishi odatiy jarayonga aylangan. Bu ekologik madaniyatni shakllanish darajasining obyektiv asosini ta'minlagan. Ekologik muammolarning globallashuvi davriga kelib, ekologik inqiroz xalqaro ahamiyat kasb eta boshladi. Boshqa hududlar ekologik muammolari to'g'ridan-to'g'ri ikkinchi yoki barcha hududlar kesimiga ham ta'sir eta boshladi. Masalan, 2019-yilning oxirida Xitoyda tarqalgan "Koronavirus" pandemiyasi 2020-yilda dunyoning barcha hududlarini qamrab oldi. Dunyo mamlakatlari ommaviy virusni o'z hududlariga kiritmaslik choralarini ko'rsa-da, huddasidan chiqish imkoniyatini qilolmadi. Azon qatlami yemirilishi oqibatida kelayotgan muammolar yer kurrasining qaysi hududida bo'lmasin barcha hududlarga ta'sir qilishining oldini olish imkoni topilmayapti. Iqlim isishining meyor darajasidan ko'tarilib borayotgani xalqaro hamjamiyatning xavotirlariga sabab bo'lmoqda. Muzliklarning jadal erish xavfi ortmoqda. Dunyoning ko'p mintaqalarida cho'llashish davom etmoqda. Ekologiya kundan-kunga yomonlashmoqda. Ekologik muammolarning bu ko'rinishlari boshqa hududlarga ham ta'sir etmoqda. Aholi bu muammolarga shunchaki qarab turgan emas. Uning chorasini ko'rishga intilmoqda, ammo ekologik muammolarning obyektiv ta'sirini oldini olish bitta yoki bir nechta mintaqalarning harakati bilan amalga oshmayapti. Bu esa, xalqaro hamjamiyatning birgalikda harakatlanishi asosida yechim topish imkonini yaratmoqda [7;17].

Insonning tabiatga subyektiv noreal munosabatlari asrlar davomida yig'ilib juda katta ekologik inqirozni keltirib chiqardi. Tabiatga ayovsiz munosabat kuchayib bordi. Iste'mol ehtiyoj meyoridan ortib ketdi. Imkonning borida foydalanib qol qabilidagi dunyoqarash inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni

izdan chiqardi. Endilikda inson tabiatga subyektiv ta'sir etib bordi. Bu ta'sir avvaliga dunyoning turli hududlarida turlicha davom etdi. XIX asrning oxirlari XX asrning boshlaridan ekologiyaga ta'sir ko'rsatish diyarli barcha hududlarda bir xillikni tashkil etdi. Bu vaqtda dunyoning barcha hududlarida texnika inqolib yuzaga kelgan edi. Jahonda insonning ekologiyaga bo'lgan munosabati tabiat resurslaridan kengroq foydalanish asosida kechdi. Asosiy e'tibor ishlab chiqarishga qaratildi. Xomashyoni yetkazib berish qizg'in tusga kirdi. Texnologik inqilob insonning mehnatini bir necha barobarga yengillashtirib, ishlab chiqarish unumdorligini bir necha o'n barobarga ko'paytirdi. Bu jarayonlar insonning tabiat resurslaridan yanada ko'proq foydalanish ishtahasini ochib yubordi [6; 8]. Natijada, yer yuzi bo'ylab harorat o'rtcha 0,9 daraja ilidi. Dunyo okeani 15 santimetr ko'tarildi. Tog'lardagi muzliklar 50–70 foiz kamaydi. Shimoliy muz okeani va Antaraktidagi muz qoplamasi yupqalashdi. Yer yuzining umumiy manzarasi o'zgardi. O'tgan asrning so'ngi 40 yilida Afrika 28 foiz, Lotin Amerikasi 38 foiz o'rmonidan mahrum bo'ldi. Tuproqning zaharlanishi va erroziyasi kuchaydi. Dunyo okeani tobora ifloslanib, unga yil sayin 12–15 million tonna neft chiqindisi to'kilib, 150 million kvadrat kilometrdagi suv yuzasi qora parda bilan qoplandi. Agar dunyo okeani 361 million kvadrat kilometrdan iboratligi nazarda tutilsa, bu fojia ko'lami nechog'lik kattaligi ayon bo'ladi. 1970 – 2002-yillar oralig'ida dunyo okeanidagi jonzotlar turi taxminan 500 taga kamayib ketdi. Chuchuk suv havzalaridagi jonzotlar turi ham sezilarli qisqardi. Yer yuzidagi barcha parrandalar va sut emizuvchilarning to'rtidan bir qismi yo'q bo'lib ketish arafasida [5;24]. Bundan ko'rinib turibdiki, ekologik muammolar insonning global muammosiga aylangan. Inson ekologik muammolarni bartaraf etish borasida ko'plab ishlarni amalga oshirish zarur bo'ladi. Aks holda insoniyatning hayoti xavf ostida qoladi.

Ekologik madaniyatni rivojlanishining subyektiv omillariga: siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy, estetik, mehnat tarbiyasi kiradi. Inson tarbiya jarayonida shaxs bo'lib kamolga yetadi. Insonning intellekti obyektiv rivojlanishiga qaraganda subyektiv takomillashtirilgani ko'proq natija beradi. Subyektivlik asosiga ko'ra

inson professionallashadi. Shu sababli ham tarbiyaning inson ekologik madaniyatini shakllantirishda o'rni nihoyatda katta. Ekologik madaniyat tarbiya jarayonida takomillashib boradi. Ekologik madaniyatning shakllanishi faqatgina ekologik bilimlarni egallashi bilan to'liq rivojlana olmaydi. Uni rivojlantirish kompleks qamrab olishni talab etadi. Ekologik bilimlar asosida insonda tabiat va atrof-muhit haqida tushunchalar, ularni yuzaga kelishining ilmiy-amaliy ko'nikmalari, bartaraf etishning ekologik yo'nalishlariga doir tafakkur tarzi rivojlanadi. Ekologik muammolarga qarshi amaliy faoliyat yuritishida ijobiy siljishlar yuzaga keladi. Lekin, bugungi kunda ekologik globallashuv jarayonlari faqatgina ekologik bilimlar bilan kifoyalanib qolish to'liq samara berolmasligini ko'rsatmoqda. Ekologik madaniyat to'la rivojlanishi uchun inson siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik bilimlarni ham puxta egallashi zarurligini namoyon qiladi. Chunki, ekologik muammolar jadallashuvining huquqiy va ma'naviy asoslari, siyosiy, diniy hamda estetik oqibatlarini hisobga olish har qachongidan ham muhim bo'lib bormoqda. Insonda qachonki ekologik madaniyatning mana shu sohalariga doir bilim va ko'nikmalari shakllanib amaliy faolitiga ko'chmasa, uni to'laligicha rivojlantirib bo'lmaydi. Yangi ming yillikda ekologik madaniyatni kompleks rivojlantirish choralari ta'minlash allaqochon ustuvor vazifalar qatoriga kirgan. Shu jihatdan ham O'zbekiston fuqarolarida ekologik madaniyatni shakllantirish ishlari tizimli yo'lga qo'yilmoqda. Ekologik bilimlarni yoshlikdan singdirib borish maqsadida barcha ta'lim muassasalari o'quv adabiyotlariga atrof-muhit va uni asrashga doir bilimlar, tushunchalar, ular keltirib chiqaradigan xavf-xatarlar haqida mavzular kiritilgan. Ayniqsa, yangilangan O'zbekiston Konstitutsiyasida aks etgan ekologiya to'g'risidagi modda va normalarda: Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburligi (62-modda) qayd etilgan. Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin.

(68-modda) [1; 36] deb, mustahkamlab qo'yilgani fuqarolarimiz ekologik madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuning mohiyatini yoritishda tarixiylik analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi mantiqiy uslublardan foydalanilgan. Tarixiylik uslubiga ko'ra, ekologik madaniyatning rivojlanish bosqichlari inson hayot faoliyatini boshlaganidan tabiat bilan o'zaro aloqadorlikda kechmoqda. Tabiatning insonga yaratgan imkoniyatlari va insonning tabiatga ko'rsatgan ijodkorligi o'zaro munosabatlarda aks etdi. Tabiat va inson umumsayyoraning tarkibiy bo'laklari hisoblanib, doimiy aloqadorlikda bo'ldi. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar asrlar davomida ham ijobiy, ham salbiy natijalar asosida davriylikdan kelib chiqib o'zgarib turdi. Mana shu jarayonlarda insonda ekologik madaniyat shakllanib, rivojlanib bordi. Insonning ongli hayotga o'tishi tabiatni asrash shartligini aniq namoyon qilgan edi. Insoniyatning mislsiz ehtiyojlari tabiatga, aniqrog'i ekologiyaga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirdi. Endilikda, inson jamiyatda o'ziga ma'qbul bo'lgan ijtimoiy hayotini ekologik vaziyat, ekologik munosabatlar, ekologik muammolar fonida taqsimlab bormoqda [4;15].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, ekologik muammolarning oldini olish, inson ekologik madaniyatini shakllanishi va rivojlanishiga bog'liq. Inson ekologik madaniyatini rivojlanish imkoniyatlari obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar asosida amalga oshadi. Shunga ko'ra, quyidagi xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, insonlarning ekologik madaniyatini tarixiy vorisiylik asosida tarbiyalashda, obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarning ta'sir yo'nalishlari ko'p bosqichli, kompleks jarayon hisoblanadi; ikkinchidan, jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy sohalarining nisbatan mustaqil rivojlanishi ekologiyalashuvda namoyon bo'lmoqda; uchinchidan, ekologik madaniyat rivojlanishi obyektiv hodisa bo'lsa ham, unda inson omilining roli o'sib borishi qonuniyatdir; to'rtinchidan, ekologik madaniyat tarixini o'rganish, undan saboq olishning mukammal institutsional tizimini shakllantirish davr talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent:, 2023.
2. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – 440 б.
3. Омонов Б.Н. Значение религиозных ценностей в формировании культуры личной экологии. Proceyedings of Global Technovation International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from Paris, France February 27th 2021. <https://conferencepublication.com>
4. Омонов Б. Экологик глобаллашув ва унинг Ўзбекистондаги экологик муҳитга таъсири. – Тошкент: Ворис, 2021. – 136 б.
5. Раҳим, Муҳиддин. Глобал экологик инкироз таҳдидлари //Тафаккур журнали, 2014. – №1. – Б.24-35.
6. Тилавов Ў.Ғ. Глобал барқарор тараққиётда экологик партияларнинг роли (ижтимоий-фалсафий таҳлил): Фалсафа фанлари доктори диссертацияси автореферати. (DSc). – Тошкент: ЎзМУ, 2021.
7. Қиличев Ф. Шахс экологик маданиятини шакллантиришда диний қадриятларнинг роли: фалсафа фанлари бўйича (PhD) фалсафа доктори диссертацияси автореферати. – Тошкент: ЎзМУ, 2022.